

NORASMIY BANDLIKNI RASMIY SEKTORGA O‘TKAZISHDA IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH VA DAVLAT QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘NALISHLARI

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti mustaqil izlanuvchisi
Bobonazarova Yulduz Botirovna
boronboron42@gmail.com
orcid 0009-0004-8650-7984*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda norasmiy bandlikni rasmiy sektorga o‘tkazish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish mexanizmlari tahlil qilingan. Unda 2022-2028-yillarga mo‘ljallangan davlat siyosati doirasida joriy etilgan soliq imtiyozlari, subsidiyalar hamda raqamli monitoring tizimlarining samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijasida rasmiy bandlikni kengaytirishda iqtisodiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarining uyg‘unligi muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalash, model, stavka, mehnat resurslari balansi, kasanachi, Sayxunobod tajribasi.

Аннотация. В данной статье проанализированы механизмы перевода неформальной занятости в формальный сектор и сокращения теневой экономики в Узбекистан. Рассмотрена эффективность налоговых льгот, субсидий, а также цифровых систем мониторинга, внедрённых в рамках государственной политики на 2022–2028 годы. В результате исследования обосновано, что ключевым фактором расширения формальной занятости является согласованное применение экономических стимулов и механизмов социальной защиты.

Ключевые слова; integratsiyalash, model, stavka, mehnat resurslari balansi, kasanachi, Sayxunobod tajribasi.

Abstract. This article analyzes the mechanisms for transitioning informal employment to the formal sector and reducing the shadow economy in Uzbekistan. It examines the effectiveness of tax incentives, subsidies, and digital monitoring systems introduced within the framework of state policy for 2022–2028. The study concludes that the integration of economic incentives and social protection mechanisms is a key factor in expanding formal employment.

Keywords: integratsiyalash, model, stavka, mehnat resurslari balansi, kasanachi, Sayxunobod tajribasi.

O‘zbekistonda norasmiy bandlikni rasmiy sektorga o‘tkazish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan

biri sifatida izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda iqtisodiy rag‘batlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, institutsional boshqaruv va ijtimoiy himoya mexanizmlari o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 30-avgustda qabul qilingan qarori asosida norasmiy bandlikni qisqartirish, mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish hamda aholini rasmiy bandlikka keng jalb etishning aniq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari belgilab berildi. Mazkur hujjat va unga mos ravishda ishlab chiqilgan dasturlar 2022-2028-yillarni qamrab olgan kompleks modelni ifodalaydi. Ushbu model doirasida, avvalo, rasmiy bandlikning iqtisodiy jozibadorligini oshirishga qaratilgan soliq rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etildi. Jumladan, 2023-yildan boshlab o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan taqdirda daromad solig‘idan ozod etilib, ularga ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to‘lash orqali pensiya stajini shakllantirish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, 2025–2028-yillar davomida kambag‘al oilalar a‘zolarini ishga qabul qilgan korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasining 12 foizdan 1 foizgacha pasaytirilishi belgilandi, bu esa ish beruvchilar uchun mehnat xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirib, norasmiy ishchilarni rasmiylashtirishni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq holatga keltirdi. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi asosiy ijrochi institutlar sifatida faoliyat yuritmoqda.

Norasmiy bandlikni qisqartirishda davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham muhim o‘rin tutadi. 2022-yil 1-noyabrdan boshlab tomorqa yer egalari, kasanachilar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir nafar fuqaro uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha subsidiya ajratish tizimi joriy etildi. Shuningdek, 2023-yildan boshlab kamida uch nafar xodimni ishga olgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga har bir xodim uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravarigacha miqdorda asbob-uskunalar xaridi uchun subsidiya berish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. “Sayxunobod tajribasi” asosida mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholiga imtiyozli kreditlar va grantlar ajratish orqali ularni rasmiy daromad manbaiga ega qilish tizimi kengaytirildi. Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi muhim rol o‘ynamoqda. Bundan tashqari, norasmiy bandlikni aniqlash va rasmiylashtirish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida ma‘muriy va raqamli boshqaruv mexanizmlari joriy etildi. Xususan, 2022-yildan boshlab “Yagona milliy mehnat tizimi” orqali mehnat resurslarini to‘liq hisobga olish va monitoring qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizim orqali norasmiy bandlik aniqlangan holatlarda ish beruvchiga 1 oy muddat ichida mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish imkoniyati

berilib, bu davrda u ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi. Har yili kamida 500 ming nafar norasmiy band fuqaroni rasmiylashtirish vazifasi belgilangan bo'lib, bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi hamda mahalliy hokimliklar hamkorligida amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda ushbu maqsadlarga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq yukini kamaytirish, kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozlar berish, subsidiyalar ajratish hamda ish o'rinlari yaratishga qaratilgan davlat dasturlari kengaytirildi. Shu bilan birga, aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi institutsional mexanizmlari — “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari joriy etilib, ular orqali ehtiyojmand fuqarolarni aniqlash, ularga kasb-hunar o'rgatish, bandligini ta'minlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash ishlari tizimli yo'lga qo'yildi. Raqamlashtirish jarayonlari doirasida mehnat munosabatlarini hisobga olish, soliq tushumlarini monitoring qilish va norasmiy faoliyatni aniqlash imkoniyatlari ham sezilarli darajada kengaydi.

Norasmiy bandlikni qisqartirish siyosatining muhim yo'nalishlaridan yana biri - rasmiy bandlikning ijtimoiy jozibadorligini oshirishdir. Shu maqsadda 2023-2026-yillar davomida ijtimoiy himoya tizimi kengaytirilib, rasmiy band bo'lgan fuqarolar uchun pensiya ta'minoti, tibbiy sug'urta va boshqa ijtimoiy kafolatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Bu jarayonda Pensiya jamg'armasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi asosiy ijrochi subyektlar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida 2023-2026-yillar davomida jami 1 million nafar norasmiy band aholini rasmiy sektorga o'tkazish, har yili o'rtacha 500 ming nafargacha fuqaroni rasmiylashtirish hamda ishsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Umuman olganda, O'zbekistonda norasmiy bandlikni qisqartirish modeli soliq imtiyozlari, subsidiyalar, raqamli monitoring va ijtimoiy himoya mexanizmlarining uyg'unlashuvi asosida shakllangan bo'lib, u iqtisodiyotni “soya sektori”dan chiqarish, mehnat bozori shaffofligini oshirish va aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy institutsional yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). *Women and Men in the Informal Economy*. Geneva, 2018.
2. World Bank. *World Development Report*. Washington, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.08.2022 yildagi PQ-366-son qarori.
4. Schneider, F. *The Shadow Economy*. 2012.